



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 11 | pp. 45-53 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI



Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti, katta o'qituvchi

Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes sub'ektlarining eksport salohiyatini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda eksport salohiyati tushunchasining mohiyati, uni baholash metodikasi, ta'sir etuvchi omillar hamda rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilingan. Maqolada O'zbekiston Respublikasida kichik biznesning eksportdagi ulushi, dinamikasi va mintaqaviy taqsimlanishi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalarida kichik biznes eksport salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Kichik biznes sub'ektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish, davlat qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, eksport salohiyati, tashqi iqtisodiy faoliyat, raqobatbardoshlik, innovatsiya, davlat qo'llab-quvvatlashi, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, mintaqaviy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье изучаются научно-теоретические основы повышения экспортного потенциала малого бизнеса. Анализируется сущность понятия экспортного потенциала, методология его оценки, факторы влияния и опыт развитых стран. На основе статистических данных исследуется доля, динамика и региональное распределение малого бизнеса в экспорте Республики Узбекистан. По результатам исследования разрабатываются научно обоснованные предложения по совершенствованию организационно-экономического механизма повышения экспортного потенциала малого бизнеса. Обосновывается необходимость развития инновационной деятельности, совершенствования системы государственной поддержки и ускорения процессов цифровизации в целях повышения экспортного потенциала малого бизнеса.

Ключевые слова: малый бизнес, экспортный потенциал, внешнеэкономическая деятельность, конкурентоспособность, инновации, государственная поддержка, организационно-экономический механизм, региональное развитие.

Abstract: This article studies the scientific and theoretical foundations of increasing the export potential of small businesses. The study analyzes the essence of the concept of export potential, its assessment methodology, influencing factors, and the experience of developed countries. The article studies the share, dynamics, and regional distribution of small businesses in exports in the Republic of Uzbekistan based on statistical data. The results of the study develop

scientifically based proposals for improving the organizational and economic mechanism for increasing the export potential of small businesses. The need to develop innovative activities, improve the state support system, and accelerate digitalization processes in increasing the export potential of small businesses is substantiated.

Keywords: *small business, export potential, foreign economic activity, competitiveness, innovation, state support, organizational and economic mechanism, regional development.*

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida eksport salohiyatini oshirish har bir mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega vazifaga aylanmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng mobil tarkibiy qismi sifatida mamlakat eksport salohiyatini faollashtirish hamda xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvida muhim o'rin tutadi [1]. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yalpi ichki mahsulotning 50-70 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keladi, ularning eksportdagi ulushi ham salmoqli hisoblanadi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonida respublika eksport hajmlarini 2026-yilda 30 milliard AQSh dollariga yetkazish, xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga ko'tarish maqsad qilib belgilangan [3]. Ushbu strategik vazifalarning bajarilishi bevosita kichik biznes sub'ektlarining eksport salohiyatidan samarali foydalanishga bog'liq.

Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 54 foizdan ortig'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri kelmoqda va ularning eksportdagi ulushi 24-28 foizni tashkil etmoqda [4]. Biroq, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetmaydi, bu esa kichik biznes eksport salohiyatini oshirishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi aynan shu muammolarni hal etish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport salohiyatini rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: eksport salohiyati tushunchasining mohiyatini aniqlash; kichik biznes eksport salohiyatini baholash metodikasini takomillashtirish; xorijiy tajribani o'rganish va foydalanish imkoniyatlarini belgilash; O'zbekistonda kichik biznes eksport salohiyatining hozirgi holatini tahlil qilish; eksport salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport salohiyati tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda eksport salohiyatiga yetarlicha ta'rif berilgan va shu bilan birga, bu tushunchaning yagona talqini mavjud emas, bu uning shakllanishini va boshqarish imkoniyatlarini murakkablashtiradi [5]. Shuning uchun konseptual va kategorial apparatlarni aniqlash, shuningdek, eksport salohiyati mohiyatiga oid turli nazariy yondashuvlarni o'rganish va tizimlashtirish lozim.

Mamlakat eksport salohiyatini tasniflashda iqtisodiy salohiyat tushunchasidan kelib chiqqan holda salohiyatning ikkita asosiy yondashuvini ajratish taklif etilgan [6].

Birinchisi, jarayonli yondashuv bo'lib, bunda salohiyat bir holatdan ikkinchi, mukammal holatga o'tish imkoniyati, o'zgarish faoliyati sifatida qabul qilinadi. Ikkinchisi, resursli yondashuv (hozirgi vaqtda mavjud) bo'lib, salohiyatni sifat o'zgarishlar uchun zarur resurslar majmui sifatida tushunishga asoslanadi.

Iqtisodchi olim tomonidan eksport salohiyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Eksport salohiyati - milliy iqtisodiyot tarmoqlarining butun majmuasi, uning alohida tarmoqlari va milliy kompaniyalarning eksporti uchun zarur miqdorda raqobatbardosh mahsulot yaratish qobiliyatidir" [7]. Bu ta'rif eksport salohiyatining mohiyatini to'liq aks ettiradi va uni baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodchi olim o'z tadqiqotlarida mintaqa eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ekonometrik baholash usullarini taklif etgan [8]. U eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash uchun xalqaro iqtisodiy nazariyalar, jumladan, Porter raqobat afzalliklari modeli, Heksher-Olin modeli va gravitatsiya modellaridan foydalanish mumkinligini ko'rsatgan. Shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlar (yalpi ichki mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, valyuta kursi, inflyatsiya) eksport imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslangan.

Kichik biznes sub'ektlarining eksport salohiyatini baholashda bir qator mezonlar muhim ahamiyatga ega. Ekspertlarning fikricha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatuvchi asosiy mezonlar quyidagilar hisoblanadi [9]: korxonalarning ishlab chiqarish resurslarining yuqori darajasi; korxona xalqaro standartlar muvofiqligiga sertifikatlangan mahsulotlarning umumiy hajmi bo'yicha olingan mahsulotlarining nisbiy yuqori ulushi; korxona faoliyatini axborot bilan ta'minlanishining yuqori darajasi.

Iqtisodchi olim o'z tadqiqotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning nazariy asoslari, iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni hamda zamonaviy sharoitlarda rivojlanish yo'nalishlarini chuqur tadqiq etgan [10]. Tadqiqot natijalari kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini oshirish jarayonlaridagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, solishtirma usul, statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish va empirik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi rasmiy ma'lumotlari asosida amaliy tahlillar olib borildi [11]. Kichik va o'rta biznes sub'ektlarining eksportdagi ishtiroki raqamli ko'rsatkichlar orqali o'rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli orqali xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan solishtirma xulosalar chiqildi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar va hukumat qarorlari tahlil qilindi. Metodologiya asosida Surxondaryo, Andijon, Buxoro viloyatlaridagi kichik korxonalar faoliyati va ularning eksportdagi ulushi tahlil qilindi [12]. Bu ma'lumotlar rasmiy davlat portallaridan, so'rovnomalardan va mahalliy hokimlik hisobotlaridan olindi.

Kichik biznes korxonalarining eksport salohiyatini baholash metodikasi muallif tomonidan taklif qilingan bo'lib, u korxonalar eksport salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillarni hisobga olishni qamrab oladi [13]. Metodika eksport salohiyatini to'rt darajaga ajratishni o'z ichiga oladi. Eksport salohiyatining darajasi korxonaga ketma-

ket beriladi, ya'ni yuqori darajaga o'tish uchun avvalgi darajadagi mezonlarga javob berish zarur.

Eksport salohiyati darajasini umumiy baholash quyidagicha amalga oshiriladi: har bir mezonga muayyan ball qiymatini belgilash asosida aniqlangan muayyan mezonni baholash; olingan ballarning umumiy sonini baholash mezonlari bo'yicha eng yuqori ball soniga nisbati sifatida hisoblangan eksport salohiyatini baholash [14]. Bunda korxonaning bozorga nisbatan eksport salohiyati har bir bosqichida quyidagi formula asosida hisobga olinadi: Darajaning bahosi = Mezon bo'yicha olingan barcha ballar yig'indisi / Baholangan mezonlar miqdori.

TAHLILVA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes salmog'ining ortib borayotganligi global tendensiya hisoblanadi. AQSh yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 50 foiz, Yaponiyada 55 foiz, Xitoyda 60 foiz, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida 60-70 foizni tashkil etadi [15]. Kichik korxonalarning bu mamlakatlar eksportidagi ulushi ham salmoqli bo'lib, Germaniya va Niderlandiyada bu ko'rsatkich 40 foizga, Italiyada 20-25 foizga, AQSh va Yaponiyada 15 foizga teng.

Rivojlangan mamlakatlar yirik kompaniyalari tomonidan eksport qilinuvchi yuqori texnologik mahsulotlarning butlovchi qismlarining katta qismi kichik korxonalarda ishlab chiqarilishini hisobga olsak, ularning eksportdagi hissasi ikki barobarga ortadi [16]. Bu mamlakatlarda kichik biznes korxonalari eksportining asosini texnologiyalar savdosi tashkil etadi, jumladan, AQShda sotilgan litsenziyalarning 50 foizi kichik korxonalarga to'g'ri keladi, Yaponiyada bu ko'rsatkich 55 foizni tashkil etadi. Quyidagi jadvalda rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni keltirilgan.

1-jadval

Ilg'or xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni¹

Mamlakatlar	Kichik biznes soni (ming)	1000 kishiga to'g'ri keladigan soni	Bandlikdagi ulushi (%)	YIMdagi ulushi (%)
Buyuk Britaniya	2 930	46	56	50-53
Germaniya	2 290	37	69,5	50-54
Italiya	3 920	68	71	57-60
Fransiya	1 980	35	54	55-62
AQSh	19 300	74	54	50-52
Yaponiya	6 450	50	78	52-55

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiyotdagi o'rni so'nggi yillarda barqaror o'sish dinamikasiga ega bo'lib, u mamlakat yalpi ichki mahsulotining muhim qismini shakllantirmoqda [18]. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024-yillar oralig'ida kichik biznesning YIMdagi ulushi o'rtacha 53 foiz atrofida bo'lgan. 2024-yil holatiga mamlakatdagi har uch ish joyidan ikkitasi aynan kichik biznes sub'ektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2000-2021 yillar oralig'ida mamlakat eksportida kichik biznesning hissasi ortib borgan. 2013 yildan boshlab bu ko'rsatkich 26-27 foizni tashkil etgan [19]. 2018-2019

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.

yillarda kichik biznes sub'ektlarining eksportdagi ulushining salmoqli ortishining sabablaridan biri mamlakatimizda valyuta konvertatsiyasini erkinlashtirish jarayonlari bo'ldi. Kichik biznes sub'ektlari eksporti hajmi yilma-yil ortib borganligi, jumladan, 2000 yilda 334,3 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 20 martadan ko'pga oshib, 4,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi YAIMda kichik biznesning ulushi, 2020-2024 yillar²

Yil	YIMdagi ulushi, %	O'zgarish, % punkt	Izoh
2020	53,9	—	Pandemiya davri, iqtisodiy cheklovlar
2021	54,9	+1,0	Tiklanish bosqichi: soliq yengilliklari
2022	51,8	-3,1	Global logistik inqiroz, import cheklovlari
2023	51,2	-0,6	Iqtisodiy islohotlar jarayoni
2024	54,3	+3,1	Raqamli iqtisodiyot, eksportni rag'batlantirish

3-jadval

O'zbekistonning kichik va o'rta biznesi tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi³

Yil	Umumiy eksport (mlrd. \$)	Kichik biznes eksporti (mlrd. \$)	Ulushi (%)
2020	18,2	3,9	21,4
2021	19,7	4,3	21,8
2022	21,4	5,0	23,4
2023	23,8	5,6	24,0

O'zbekiston viloyatlarining kichik biznes eksportidagi ulushi va o'zgarish darajasi tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqalar o'rtasida sezilarli farqlar mavjud [22]. Respublika eksportidagi hissa nisbatan kichik bo'lgan viloyatlarning respublika sanoatidagi ulushi katta, ya'ni bu viloyatlar sanoat jihatidan rivojlangan, asosiy yirik sanoat korxonalari shu yerda joylashgan. Quydagi jadvalda viloyatlar kesimida kichik biznes eksport ulushi keltirilgan.

4-jadval

O'zbekiston hududlarida kichik biznes sub'ektlarining eksportdagi ulushi (2024-yil)⁴

Hudud	Eksport hajmi (mln. \$)	Kichik biznes ulushi (%)	Asosiy eksport turlari	O'sish sur'ati (%)
Andijon	280	52	To'qimachilik, kiyim-kechak	12,5
Buxoro	190	47	Charm, gilam mahsulotlari	10,2
Farg'ona	220	49	Meva-sabzavot, neft-kimyo	11,7
Surxondaryo	160	55	Qishloq xo'jaligi,	13,1

² O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Hudud	Eksport hajmi (mln. \$)	Kichik biznes ulushi (%)	Asosiy eksport turlari	O'sish sur'ati (%)
Toshkent shahri	450	38	qurilish Farmatsevtika, avtomobil	9,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Surxondaryo viloyati kichik biznes ulushi bo'yicha yetakchi (55 foiz) hisoblanib, asosan qishloq xo'jaligi va qurilish materiallarini eksport qilmoqda. Toshkent shahri eksport hajmi bo'yicha yetakchilik qilayotgan bo'lsa-da, kichik biznes ulushi nisbatan past (38 foiz) bo'lib, bu yirik korxonalar ustuvorligini ko'rsatadi [24]. Biroq, farmatsevtika va avtomobil sanoatidagi kichik korxonalar sezilarli o'sishga erishgan.

Kichik biznes korxonalarining eksport salohiyatini konseptual-mantiqiy baholash bir qator tashqi muhit omillariga bog'liq [25]. Bular: ijtimoiy-iqtisodiy omillar - tashqi bozor kon'yunkturasini aks ettiruvchi omillar guruhi; milliy-madaniy omillar - jamiyat hayoti jarayonida shakllangan qadriyatlar va me'yorlar; ishlab chiqarish va texnologik omillar - mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining texnik va texnologik darajasi; siyosiy va huquqiy omillar - mamlakatdagi siyosiy vaziyatni aks ettiradigan omillar. Quyidagi jadvalda eksport salohiyatini baholash mezonlari keltirilgan.

5-jadval

Kichik biznes eksport salohiyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari⁵

Salohiyat darajasi	Baholash mezonlari	Ko'rsatkich chegarasi
Birinci daraja	Ichki bozorda raqobatbardosh mahsulot mavjudligi	$0\% < ESD_1 < 50\%$
Ikkinchi daraja	Xalqaro standartlarga muvofiqlik, sertifikatlash	$51\% < ESD_2 < 90\%$
Uchinchi daraja	Infratuzilma va eksport strategiyasi mavjudligi	$91\% < ESD_3 < 100\%$
To'rtinchi daraja	Eksportni to'liq amalga oshirish	$ESD_4 = 100\%$

Tadqiqot natijalarida kichik biznes sub'ektlarining eksport salohiyatini oshirish uchun quyidagi muammolar davlat ko'magida hal etilishi kerakligi aniqlandi [27]: ishlab chiqarish korxonalarida malakali kadrlar yetishmasligi; muvofiqlashtiruvchi va ruxsat beruvchi hujjatlarni olishda qiyinchiliklar; sanoatda kichik biznes rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lib energiya infratuzilmasi; kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyatini hokimiyat organlari tomonidan yetarli darajada rag'batlantirilmaganligi; eksport bozorlari, xorijiy davlatlar qonunchiligi, sertifikatlashtirish tizimlari haqida ishonchli ma'lumotlarning yo'qligi.

Kichik biznes sub'ektlari eksport salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi korxonaning eksport salohiyati darajalari, korxonaning tashqi bozorga chiqish bosqichlari va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari bloklari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettirib, to'rtta bosqichni qamrab oladi [28]: potensial eksport bozorlarini aniqlash, eksport

⁵ Muallif ishlanmasi.

faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va bozor holatini monitoring olib borish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin [29]: kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksportdagi ishtirokini rag'batlantirish, ularga zarur shart-sharoitlarni yaratish; mamlakatning eksport bozorlaridagi mavqeini mustahkamlash va kengaytirish, yangi eksport bozorlarini egallash; har bir tarmoq va hudud kesimida eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ko'zda tutuvchi o'zaro muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish.

XULOSA

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, eksport salohiyati milliy iqtisodiyot tarmoqlarining butun majmuasi, uning alohida tarmoqlari va milliy kompaniyalarning eksporti uchun zarur miqdorda raqobatbardosh mahsulot yaratish qobiliyati sifatida belgilandi. Kichik biznes korxonalarining xalqaro miqyosda faoliyat yuritishiga intilishlariga ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy, ishlab chiqarish-texnologik va siyosiy-huquqiy omillar ta'sir etishi aniqlandi.

Ikkinchidan, xalqaro tajribaga muvofiq, ishbilarmonlik muhitining yaxshilanishi uchun biznesning rivojiga xizmat qiladigan infratuzilma, kichik biznes korxonalari faoliyatini moliyaviy, mehnat, axborot resurslari bilan ta'minlash, shuningdek, transport, konsalting, audit, sug'urta va boshqa xizmatlar faolligini oshirish zarur. Kichik biznesning xalqaro maydonga chiqishi uchun asosiy yo'nalish biznesni faol kompyuterlashtirish va raqamlashtirishdir.

Uchinchidan, O'zbekistonda kichik biznesning YIMdagi ulushi 2020-2024 yillarda o'rtacha 53 foizni, eksportdagi ulushi esa 21-24 foizni tashkil etgan. Mintaqalar kesimida Surxondaryo (55 foiz), Andijon (52 foiz) viloyatlarida kichik biznes eksport ulushi eng yuqori hisoblanadi. 2020-2023 yillarda kichik biznes eksporti 3,9 mlrd dollardan 5,6 mlrd dollargacha o'sdi.

To'rtinchidan, kichik biznes eksport salohiyatini baholash metodikasi taklif qilingan bo'lib, u to'rt darajali baholash tizimini o'z ichiga oladi. Ushbu metodika korxonalar eksport salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi va ichki omillarni hisobga olishni qamrab olib, baholash natijalari mamlakatimizda kichik biznes korxonalarini qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirish imkonini beradi.

Beshinchidan, kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish omili bo'lgan innovatsiya faoliyati, innovatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, texnologiyalar transferi uchun sharoit yaratish, innovatsiya mahsulotlari bilan tashqi bozorga chiqishni rag'batlantirish samaradorligini kichik biznes korxonalarining innovatsiya faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tarmoq dasturlarini ishlab chiqish asosida ta'minlash asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adhamov M.Z. Eksport salohiyatini oshirishda kichik biznes sub'ektlarining o'rnini // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Том-21. – №7. – Б. 156-162.

2. Kambarova Sh.M. Kichik biznesning eksport salohiyatini oshirishda jahon tajribasi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – №11-12. – B. 659-668.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari // <https://stat.uz>
5. Sobirov A. Kichik biznes va tadbirkorlik: nazariy asoslar va rivojlanish yo'nalishlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – №10. – B. 204-208.
6. Raximov T.J. Mintaqa eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ekonometrik baholash // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – №6. – B. 580-586.
7. Kambarova Sh.M. O'zbekistonda innovatsiya jarayonlari rivojlanishi sharoitida kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish. Monografiya. – T.: 2023.
8. Raximov T.J. Xorazm viloyatining eksport salohiyatini oshirish modellari // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – №6. – B. 580-586.
9. Yadgarova N.R. Tashqi iqtisodiy faoliyatda kichik biznes sub'ektlari o'rni // Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqalar barqaror rivojlanishining dolzarb muammolari va yechimlari. – 2024. – B. 350-354.
10. Sobirov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omillari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – №10. – B. 204-208.
11. Xurramov R.A. Kichik biznesning hudud eksport salohiyatiga ta'siri // Research Impact Factor. – 2024. – Vol.3. – Issue-4. – P. 176-180.
12. Xurramov R.A. Hududiy eksport strategiyalarini ishlab chiqishda kichik biznesning sektoral tahlili // Research Impact Factor. – 2024. – Vol.3. – Issue-4. – P. 176-180.
13. Kambarova Sh.M. Kichik biznes eksport salohiyatini baholash metodikasi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – №11-12. – B. 659-668.
14. Kambarova Sh.M. Eksport salohiyatini to'rt darajaga ajratish metodikasi // Monografiya. – T.: 2023.
15. Global innovatsion indeks 2020 // https://www.wipo.int/global_innovation_index/ru/2020/index.html
16. Kambarova Sh.M. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning eksportdagi ulushi // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – №11-12. – B. 662.
17. Kambarova Sh.M. Ilg'or xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznesning o'rni // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – №11-12. – B. 662.
18. Rustamova M.D. Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarida samaradorlikni oshirish usullari // Raqamli iqtisodiyot. – 2025. – №13. – B. 1006-1010.
19. Kambarova Sh.M. O'zbekiston eksportida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektori hissasining o'zgarishi // Monografiya. – T.: 2023.
20. Rustamova M.D. 2020-2024-yillarda kichik biznesning ulushi // Raqamli iqtisodiyot. – 2025. – №13. – B. 1008.
21. O'zbekiston kichik va o'rta biznesi eksport hajmi // Raqamli iqtisodiyot. – 2024. – №11. – B. 683.
22. Kambarova Sh.M. O'zbekiston viloyatlari eksportida kichik biznesning ulushi // Monografiya. – T.: 2023.

23. Xurramov R.A. O'zbekiston hududlarida kichik biznes sub'ektlarining eksportdagi ulushi // Research Impact Factor. – 2024. – Vol.3. – Issue-4. – P. 179-180.
24. Xurramov R.A. Toshkent shahri va viloyatlar eksport tahlili // Research Impact Factor. – 2024. – Vol.3. – Issue-4. – P. 180.
25. Kambarova Sh.M. Eksport salohiyatini baholashning tashqi muhit omillari // Monografiya. – T.: 2023.
26. Kambarova Sh.M. Eksport salohiyatining to'rt darajasi // Monografiya. – T.: 2023. – 14-bet.
27. Kambarova Sh.M. Kichik biznes sub'ektlarining eksport salohiyatini oshirish muammolari // Monografiya. – T.: 2023.
28. Kambarova Sh.M. Kichik biznes sub'ektlari eksport salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi // Monografiya. – T.: 2023. – 24-bet.
29. Kambarova Sh.M. Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanish // Monografiya. – T.: 2023. – 24-bet.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

